



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT SHAHAR MUHANDISLIK TA’LIMI ASSOTSIATSIYASI**  
**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA**  
**PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK**  
**RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI**

# **XALQ TA’LIMI TIZIMIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH: MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI**

**mavzusida xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**TOSHKENT–2022**

**Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish: muammo va ularning yechimlari** mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T, « Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022 - yil 23 - sentabr, 380 bet.

**Tahrir hay’ati raisi:**

T.Magrupov - Toshkent shahar muhandislik ta’limi assotsiatsiyasi raisi.

**Tahrir hay’ati:**

Z.Gaipnazarova, L.Gaynutdinova, K.Jo‘rabojev, X.Usmanova, J.Pulatov,  
X.Foziljonov, D.Muxammedjanova, M.Talipova.

**Dizayner va sahifalovchi:**

N.Atabayev.

Ushbu “Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish: muammo va ularning yechimlari” mavzusida xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya materiallari to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat-notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasining davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida Toshkent shahar muhandislik ta’limi assotsiatsiyasining “O‘quvchilarni kasbiy mahoratini, intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy faoliyatga bo‘lgan qobiliyat va kompetensiyalarni shakllantirish” loyihasi doirasida “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi” bilan hamkorlikda ishlab chiqildi.

Maqolalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma, statistik ma’lumotlar, ilmiy - nazariy fikrlar va ma’lumotlar aniqligi hamda stilistikasiga mualliflar javobgardir.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik - pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy - metodik kengashining 2022 - yil 27 - sentabrdagi 3 - son yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**© O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA  
PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI, 2022.**

профессиональной ориентации одно из самых важных предметов которое необходимо внедрить с самых ранних лет обучения в школе.



## **INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARNI KICHIK MAKTAB YOSHIDAN KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH**

F.Qodirova - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakelteti Maxsus pedagogika fafedrasi mudiri p.f.d., (DCs), proff.  
S.Mo'minov - ChDPU Pedagogika fakelteti Maxsus pedagogika: Surdopedagogika  
kafedrasi magistri. Respublika tashxis marazi inklyuziv ta'lim laboratoriyasi  
bo'limi metodisti

**Annotatsiya.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab - ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus maxsus vosita va metodlarni qo'llagan holda ta'lim muhitini yaratish, keng jamoatchilik orasida qo'shish hamda kasb-hunar egallashi uchun zamin yaratishdir.

**Kalit so'zlar:** Kasbga yo'naltirish, inklyuziv ta'lim, kasb-hunar, korreksiya, umumiy o'rta ta'lim maktabi, metodika, darsliklar.

**Аннотация.** В общеобразовательных школах организуются инклюзивные и начальные коррекционные занятия в зависимости от возрастных и индивидуальных особенностей детей, уровня психического развития, состояния соматического и психического здоровья.

Организация инклюзивного образования должна основываться на принципах гуманизма, общечеловеческих ценностей, толерантности и открытости.

Целью инклюзивного образования является создание образовательной среды для обучающихся с особыми образовательными потребностями с использованием специальных средств и методов, их интеграция в широкую общественность, создание базы для их профессионального развития.

**Ключевые слова:** Профессиональная ориентация, инклюзивное образование, профессиональная подготовка, коррекция, общеобразовательная школа, методика, учебники.

**Annotation.** In general education schools, inclusive and initial correctional classes are organized depending on the age and individual characteristics of children, the level of mental development, the state of somatic and mental health.

The organization of inclusive education should be based on the principles of humanism, universal values, tolerance and openness

The goal of inclusive education is to create an educational environment for students with special educational needs using special tools and methods, their integration into the general public, and the creation of a basis for their professional development.

**Key words:** Career guidance, inclusive education, professional training, correction, general education school, methodology, textbooks.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” 2020 - yil 13 - oktabrdagi PQ-4860 - son qarorida belgilangan vazifalarni Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ - huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021 - yil 12 - oktabrdagi 638 - son qarorlarining “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi nizomining 1 - ilovasiga muvofiq 2021 - 2022 o‘quv yilidan respbulikamiz miqyosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etildi.

Maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab - ruhiy sog‘lig‘i holatiga muvofiq tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi va inklyuziv ta’limning maqsadi - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat deb belgilanadi.

Inklyuziv ta’limning vasifalari esa:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional - irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart - sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordam berish hamda ota - onalarni farzandlariga ta'lim - tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim - tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik - pedagogik jihatdan qo'llab - quvvatlash.

Inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning har birini o'ziga yarasha xususiyatlari hamda qobiliyatlari bo'ladi. Inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda maxsus o'qituvchilar har bir alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqib ma'lum bir kasbiy tushunchalar berib boshlaydi. Dastlab oddiy tushuncha beriladi. Bu jarayondan ko'zlangan maqsad alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ertangi kunda jamiyatda o'zining kasbini egallab, mustaqil hayotda biron kasb egasi, o'rni bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabidagi amaliyotga bog'liq bo'lgan texnologiya, tasviriy san'at, tabiiy fan, musiqa, jismoniy tarbiya kabi fanlarning o'rni beqiyos. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va badiiy ijod o'quvchilarning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga xizmat qilib, bolalarda ijodiy qobiliyatlarni va badiiy didni o'stirishda, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.



## **BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY FAOLIYATGA BO'LGAN QOBILIYAT VA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

N. N. Artikbayeva Nizomiy nomidagi TDPU, dotsenti,  
N.M. Muxitdinova 4-kurs talabasi

**Annotasiya.** Hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik qobiliyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar bugungi kun fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lmoqda. XXI asrga kelib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasini yanada takomillashtirib boshlang'ich ta'limga oid global o'zgarishlar, fan - texnika va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** Mutaxassislik, tadqiqot, kasbiy tayyorgarlik, boshlang'ich sinf, mediatexnologiya, baho, pedagogik qobiliyat, xorij pedagogikasi, nazariya, yondashish, tamoyil, innovatsion kreativ, Konsepsiya, sifatli ta'lim.

**Аннотация.** Исследование педагогических способностей будущего учителя начальных классов. Исследование - одна из важнейших задач,

## Mundarija

Soʻz boshi.....	3
X.Togʻayev, Xalq taʼlimi tizimida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	5
A.Mamadaliyev, Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.....	7
G.Oʻ.Yusupova, Oʻspirinlarni kasb-hunarga yoʻnaltirishda kreativ tafakkurni shakllantirishning ahamiyati.....	12
H.Foziljonov, Umumiy oʻrta taʼlim maktablari kasb-hunarga yoʻnaltiruvchilar ish faoliyatini samarali tashkil etish.....	14
T.M.Magrupov, Sh.B.Ibragimov, Maktabda kasbga yoʻnaltirish tizimida kasbga yoʻnaltirish ishlarini samaradorligini oshirish .....	18
Z.T. Gaibnazarova, Kasb tanlashda asosiy eʼtibor beriladigan omillar va ularni tizimli ravishda amalga oshirishning shart-sharoitlari.....	23
K.A.Mamajonova, Xalq taʼlimi tizimida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishga yondashuvning pedagogik mexanizmi.....	27
H.R.Sanaqulov, Boshlangʻich taʼlim texnologiya darslarida oʻquvchilarni ijtimoiy – kasbiy faoliyatga yoʻnaltirish metodikasining pedagogik - psixologik asoslari..	29
C. C. Гаибназаров, Профессиональная ориентация школьников в системе народного образования: проблемы и пути их решения.....	33
F.Qodirova, S.Moʻminov, Inklyuziv taʼlimga jalb qilingan oʻquvchilarni kichik maktab yoshidan kasb-hunarga yoʻnaltirish.....	35
N.N.Artikbayeva, N.M.Muxitdinova, Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi talabalarida kasbiy faoliyatga boʻlgan qobiliyat va kompetensiyalarni shakllantirish.....	37
R.R.Hayitboyeva, Xalq taʼlimi tizimida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlari: muammo va ularning yechimlari.....	42
D.U.Yoʻldashova, Boshlangʻich sinf ona tili darslarida fonetik mashqlarni oʻqitishda talabalarni kasbiy faoliyatga boʻlgan qobiliyat va kompetensiyalarni shakllantirish.....	44
A.U.Karayev, Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishning psixologik asoslari.....	47
D.X.Mamatov, Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishda fanlararo aloqadorlikka eʼtibor.....	50
M.A.Sharapova, Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarning kasb-hunar tanlashlarida psixologik yondashuv.....	53
S.A. Kholdarova, Requirements for choosing a profession.....	56
Z.T.Zakirova, Oʻtmish - hikmat bulogʻi, bugun - oliy neʼmat, kelajak esa oppoq qogʻoz.....	58
K.Abenova, Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishning individuallashtirish va differinsiallash tomonlari.....	62
I.F.Valiev, Kasbga yoʻnaltirishning oʻziga xos jihatlari.....	65
M.Sh.Islamova, Oʻquvchilarda kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashni shakllantirish.....	68